


Milliy test tizimi Matematika (ta'lim tili- rus) fani sertifikati uchun o'tkazilgan test sinovi approbatsiyasi natijalari tahlili

Matematika (ta'lim tili- rus) fanidan har bir variant 45 ta test topshiriqlaridan iborat bo'lib, approbatsiya test sinovida jami 237 nafar o'quvchi ishtirok etdi.

Statistik tadqiqotlar uchun mo'ljallangan maxsus dastur yordamida pedagogik testlarning asosiy statistik tavsiflari: o'rtacha qiymat, gistogrammani qurish, moda va mediana kabi ko'rsatkichlarni hisoblash hamda test ballarining umumiy dispersiyasi (standart og'ishi) aniqlandi. Bu ko'rsatkich test ballari o'rtasidagi tafovutlarni umumlashtiradi, ularga xos bo'lgan yo'nalishni, qonuniyatni ochib beradi. Test ballarining eng ko'p takrorlanadigan qiymati statistikada **moda** deb, o'sish tartibida joylashtirilgan test ballari qatorining o'rtasida joylashgan qiymat esa **mediana** deb ataladi. O'rtacha arifmetik qiymat, moda va mediana qiymatlari o'zaro teng bo'lganda test ballari taqsimoti simmetrik bo'ladi. Ushbu statistik ko'rsatkichlar biri- biridan qanchalik ko'p farq qilsa, ballar taqsimoti normal taqsimotdan shunchalik uzoq bo'ladi.

Quyidagi jadvalda Matematika (ta'lim tili- rus) fanidan test topshiriqlari natijalari bo'yicha statistik ma'lumotlar hamda taqsimot gistogrammasi keltirilgan.



Jadvaldagi qiymatlardan - o'rtacha qiymat (38,31), mediana (40) va moda (38) bir- biriga yaqin ekanligi aniqlandi. Gistogrammadan ko'rinib turibdiki, taqsimotning chap tomoni normal taqsimotga nisbatan biroz chapga cho'zilganligi, cho'qqilari normal chiziqqa nisbatan balangroq ekanligi kuzatildi.

Shuningdek, Matematika (ta'lim tili- rus) fani bo'yicha eng muhim ko'rsatkichlardan **ishonchlilik koeffitsienti** (Kronbax alfasi) **0,875** ga hamda **o'lchashning standart xatoligi** (SEM) **5,93** ga teng ekanligi aniqlandi.